

KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA IKKI TILLILIKNI SHAKLLANTIRISH  
METODIK TIZIMI

**S.M.Zokirova**

*Fdu.(DSc)*

**G.M.Axmadjonova**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ikki tilli ta'limni joriy etish zaruriyati hamda, ikki tillilik tushunchasi va uning turli shakllari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit So'zlar:** *Chet tili, ikki tillilik turlari, ikki tilli ta'lim, til dasrurlari, ko'p tillilik, ikki tilli ta'lim tipologiyasi.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining hozirgi tendensiyalaridan biri inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan globallashuv jarayonidir. Ushbu jarayonda muloqot vositasi bo'lgan tilning ahamiyati kata bo'lmaganida, bu jarayonning samaradorligi bunchalik yuqori bo'lmas edi. Avallo biz chet tili haqida gapiramiz, chunki internetdagi ma'lumotlarning aksariyati, shuningdek, barcha xalqaro huquqiy, me'yoriy, texnik va boshqa turdagi hujjatlar chet tilida taqdim etilishi hammaga ma'lim.

Ikki tilli ta'limning turli shakllari mavjud, ular orasida ikki yoki undan ortiq tilda alohida tushuntirish yoki ularning kombinatsiyasi mavjud. Va bularning barchasi ikki tilli ta'limning muayyan bosqichlaridir. Beykerning fikricha ikki tilli ta'lim bu-bir necha tillarda ikki tildan ko'proq tilda ta'lim deya ta'kidlagan. Zamonaviy hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo aholising taxminan 60-70 foizi ikki tilda gaplashadi va ikki tilli ta'lim butun dunyo bo'ylab ta'limda keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Mamlakatimizda ikki tilli ta'limning bir nechta kompetensiyalarini ishlab chiqib amaliyotga tadbiq etish lozim. Bu borada quydagi boshlang'ich sinf o'quvchilarning til o'rganish ko'nikmalarini muvaffaqiyatli bo'lishi uchun darsda ishning o'yin turlaridan foydalanish kerak, chunki kichik yoshdagi o'quvchilar uchun o'yin atrofidagi dunyoni o'rganishning asosiy shakli hisoblanadi.

O'quvchilar bir-biri bilan bellashib, yangi so'zlarni takrorlab, yangi materialni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Kognitiv o'yinlar ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qanday xizmat qilishini aniqlashimiz kerak. Ma'lumki, o'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyatida etakchi o'rinni egallaydi. Aynan o'yin quyi sinflarda qo'llash uchun eng mos keladi, chunki o'qituvchining ham, o'quvchilarning ham ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, leksik va grammatik materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Ko'pgina iqtidorli o'qituvchilar o'quv jarayonida o'yinlardan foydalanish samaradorligiga e'tibor berishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'limning asosiy boshlang'ich bosqichi hisoblangan boshlang'ich sinflarda inkluziv ta'limning zamonaviy bir qator metodlari ishlab chiqilmoqda. Har bir fan o'quvchining aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishi

uchun asos bo'luvchi saviyaga egadir. Shu jumladan chet tillarining ham o'zni beqiyosdir. Dastlab ingliz, fransuz, nemis tillari 5-sinfdan boshlab o'qitilgan. Bugungi kunga kelib esa, chet tillari boshlang'ich sinflardan o'qitila boshlandi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf maktab yoshidagi bolada chet davlat tiliga bo'lgan qiziqish va dunyoqarashni shakllanishiga turtki bo'ldi. Bolalar chet tillarini o'rgnib, so'z boyliklari orta boshladi, nutqi shakllandi. Ikki tilli qilib shakllantirish mehanizmini hozirgi kunning ta'lim jarayoniga tadbiiq etadigan bo'lsak, darslarni noan'anaviy tarzda shakllantirgan bo'lamiz albatta.

Misol uchun matematika darni o'laylik. son, sanoq, qo'shish ayrish, ko'paytirish, bo'lish kabi matematik amallarni inglizcha nomini o'rgatib, darsni biror qizimida tanishtirib o'tsak, o'quvchida ham yangi mavzu o'zlashtiriladi ham yangi nutq boyligi shakllanadi. Buning uchun eng avvalo pedagog o'z oldiga bir qator vazifalarni qo'ymog'i lozim:

-Fan o'qituvchining o'zi chuqur bilimga ega bo'lish.

-Darslarni to'g'ri shakllantira olish.

-Barcha fanlarni ikkinchi til bilan integratsiya qila olish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:**

1. John Adams || Analysis of retirement age in different countries of the world. London 2017. 2. –Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)||Xalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.

3. J. Jalolov . –ingliz tilini o'qitish metodlari|| –O'qituvchi|| nashiryoti Toshkent To'xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.

4. Тухтасинова, Н. Р. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР. Экономика и социум, (2-2), 240-244.

5. Pratoва, G. O., & To'xtasinova, N. R. Q. (2022). O'ZBEK TILIDA FREZELOGIZMLARNING PRAGMATIK SINONIMYASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 35-38.